

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ETIKASI BO'YICHA MODEL QONUN ISHLAB CHIQISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Muxtorov Nodir Komil o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistr talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661214>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda sun'iy intellekt ishtirokida yuzaga kelayotgan transchegaraviy nizolarni tartibga solishda etik tamoyillarga asoslangan model qonunlarning huquqiy ahamiyati yoritiladi. Tahlil davomida shartnomaviy munosabatlar, javobgarlik masalalari, intellektual mulk huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga doir nizolar misollar orqali ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan SI etikasi bo'yicha model qonun tashabbusining xalqaro huquqiy ahamiyati va milliy qonunchilikdagi rivojlanish tendensiyalari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xalqaro xususiy huquq, transchegaraviy nizo, etik tamoyillar, model qonun, O'zbekiston.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DEVELOPING A MODEL LAW ON THE ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE USE IN REGULATING AI-RELATED DISPUTES IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Annotation. This article explores the significance of developing a model law based on ethical principles to regulate cross-border disputes involving artificial intelligence within the framework of private international law. The analysis highlights disputes arising from contractual relations, liability, intellectual property rights, and personal data protection. Furthermore, it emphasizes Uzbekistan's initiative to propose a model AI ethics law and its relevance both globally and within national legislative reforms.

Keywords: artificial intelligence, private international law, cross-border dispute, ethical principles, model law, Uzbekistan.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗРАБОТКИ МОДЕЛЬНОГО ЗАКОНА ОБ ЭТИКЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СПОРОВ С УЧАСТИЕМ ИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ

Аннотация. Данная статья посвящена освещению правового значения модельных законов, основанных на этических принципах, в регулировании трансграничных споров с участием искусственного интеллекта в международном частном праве. В ходе анализа рассматриваются споры, возникающие в связи с договорными отношениями, вопросами ответственности, правами интеллектуальной собственности и защитой персональных данных, на основе конкретных примеров. Также освещается международно-правовое значение инициативы Республики Узбекистан по разработке модельного закона об этике ИИ, а также тенденции развития национального законодательства в данной сфере.

Ключевые слова: искусственный интеллект, международное частное право, трансграничный спор, этические принципы, модельный закон, Узбекистан.

KIRISH

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy munosabatlarga tobora chuqurroq kirib borayotgani zamonaviy yuridik

amaliyotga kun tartibiga yangi savollarni qo'yimoqda. Ayniqsa, SI ishtirokida yuzaga kelayotgan transchegaraviy huquqiy nizolar xalqaro xususiy huquq doirasida yechim izlashni talab etmoqda.

Bunday nizolar, odatda, shartnomaviy munosabatlar, javobgarlik, intellektual mulk huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu bois, xalqaro xususiy huquqda SI ishtirokidagi nizolarni tartibga solish masalasi faqat texnik emas, balki normativ va axloqiy yondashuvlarni ham talab etmoqda. Ushbu murakkabliklarni hal qilishda barcha uchun umummanfaatli, global miqyosda tan olingan etik tamoyillar asosidagi model qonunlar ishlab chiqish kun tartibidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI NIZOLAR VA ULARNING HUQUQIY XUSUSIYATLARI

Xalqaro xususiy huquqda sun'iy intellekt bilan bog'liq nizolar turli sohalarda kuzatilmoqda. Misol uchun, AQShda joylashgan kompaniyaning SI yordamida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan tibbiy tashxis tizimi Germaniyada foydalanilgan va noto'g'ri tashxis sabab bemorga zarar yetgan holatda, qaysi davlat qonunchiligi qo'llanilishi va qaysi yurisdiksiya mas'ul bo'lishi haqida bahs yuzaga keladi. Yoki AQShda joylashgan "Clearview AI" yuzni aniqlash texnologiyasi ishlab chiquvchi kompaniya Fransiyada foydalanuvchilarning shaxsiy fotosuratlarini ruxsatsiz yig'ib, GDPR(*umumiy ma'lumotlarni himoya qoidalarini*) qoidalarini buzgani uchun CNIL(*Fransiya ma'lumotlarni himoya qilish agentligi*) tomonidan 20 million yevro jarimaga tortilgan¹.

Bundan tashqari, xalqaro e-commerce maydonida ham SI ishtirokidagi nizolar ko'paymoqda. Masalan, "Booking.com" va "Expedia" kabi onlayn platformalarning algoritmlari foydalanuvchilarga narxlarni avtomatik aniqlashda noto'g'ri ma'lumot bergani sababli iste'molchilar manfaatiga zid holatlar yuzaga kelgan. Bunday nizolar odatda iste'molchi huquqlari, shartnomaviy shartlarning o'zgarishi va algoritmik diskriminatsiya masalalarini o'z ichiga oladi².

Sug'urta sohasida esa, AQShning Kaliforniya shtatida "Lemonade Insurance" kompaniyasining sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan da'volarni ko'rib chiqish tizimi tomonidan noto'g'ri rad javoblari berilgani uchun iste'molchilar da'vo bilan sudga murojaat qilgan³.

Intellektual mulk sohasida esa, "Getty Images" kompaniyasining "OpenAI" va "Stability AI" kompaniyalariga qarshi da'vosi SI tomonidan o'rgatilgan tasvirlar mualliflik huquqlarini buzdi, degan asosda ko'rib chiqilmoqda⁴.

Xalqaro savdoda esa "B2C2 Ltd (*Buyuk Britaniyada ro'yxatdan o'tgan va kripto-valyuta bozorida likvidlik provayderi sifatida faoliyat yurituvchi kompaniya*) va Quoine Pte Ltd(*Singapurd joylashgan va o'zining kripto-valyuta almashuv platformasi orqali savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya*) ishida Singapur sudi smart-kontraktlar va SI orqali amalga oshirilgan transchegaraviy kripto-savdo bitimlarini haqiqiy deb e'tirof etdi.

¹ The French SA fines Clearview AI EUR 20 million: https://www.edpb.europa.eu/news/national-news/2022/french-sa-fines-clearview-ai-eur-20-million_en

² Five key takeaways from Canadian court's dismissal of Expedia class action dismissal: <https://globalcompetitionreview.com/hub/class-actions-hub/2022/article/five-key-takeaways-canadian-courts-dismissal-of-expedia-class-action-dismissal>

³ Insurance Unicorn Lemonade Backtracks Comments About Its AI After Accusations Of Discrimination: <https://www.forbes.com/sites/carlieporterfield/2021/05/26/insurance-unicorn-lemonade-backtracks-comments-about-its-ai-after-accusations-of-discrimination/>

⁴ Getty Images and others -v- Stability AI: <https://www.judiciary.uk/judgments/getty-images-and-others-v-stability-ai/>

Sud, sun'iy intellekt yordamida tuzilgan kontraktlar an'anaviy fuqarolik-huquqiy majburiyatlar bilan tenglashtirilishini ta'kidladi"⁵.

Bunday misollar SI texnologiyalarining xalqaro xususiy huquq doirasidagi murakkab va ko'p qirrali muammolarga sabab bo'layotganini ko'rsatadi.

Bunday nizolar huquqiy noaniqliklar, kollizion normalar va yurisdiksiya masalalarining ochiqqligi sababli yanada murakkablashmoqda. Ayniqsa, SI tomonidan mustaqil tarzda qabul qilingan qarorlar ortidan kelib chiqadigan javobgarlikni aniqlash xalqaro huquqiy tartibda keng muhokama qilinmoqda. Shu munosabat bilan, sun'iy intellektdan foydalanish etikasi, u bilan bog'liq huquqiy tamoyillar va javobgarlik doiralarini belgilovchi model qonunlar ehtiyoji ortib bormoqda.

SUN'IY INTELLEKT ETIKASI BO'YICHA MODEL QONUNNING HUQUQIY AHAMIYATI

Model qonunlar – bu muayyan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga doir xalqaro tajriba asosida ishlab chiqiladigan va davlatlarga tavsiya etiladigan hujjatlardir. Xalqaro xususiy huquqda SI bilan bog'liq nizolarni hal etishda model qonunlar etik tamoyillarni aniq belgilab berishi, SI tizimlarining qaror qabul qilish jarayonida inson huquqlari, sha'ni va axloqiy mezonlar e'tiborga olinishini ta'minlashi mumkin. BMT, YUNESKO va Yevropa Ittifoqi doirasida ishlab chiqilgan SI etikasi bo'yicha tavsiyalar ushbu model qonunlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yaqinda 5-9 aprel kunlari Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab sun'iy intellektdan foydalanish etikasi bo'yicha model qonun ishlab chiqishni taklif qildi⁶. Ushbu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy qarshi olindi va zamonaviy yondashuv sifatida baholandi. Prezident nutqida bu huquqiy model barcha davlatlar uchun namuna bo'lishi va eng muhimi, sun'iy intellektdan foydalanish sohasini samarali tartibga solishi qayd etildi.

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT BO'YICHA QONUNCHILIK TASHABBUSLARI

O'zbekistonda ham so'ngi yillarda SI sohasida jadal rivojlanayotgan global tendensiyalarni hisobga olib, mazkur yo'nalishda ham izchil siyosat olib borilmoqda. Xususan, 2020-yil 5-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlanib, raqamli texnologiyalarni, jumladan sun'iy intellektni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va sud-huquq tizimiga joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori qabul qilinib, unda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun

⁵ Singapore court's cryptocurrency decision: Implications for cryptocurrency trading, smart contracts and AI: <https://www.nortonrosefulbright.com/en-us/knowledge/publications/6a118f69/singapore-courts-cryptocurrency-decision-implications-for-trading-smart-contracts-and-ai>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi: <https://president.uz/oz/lists/view/8034>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

zarur tashkiliy va texnik shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi⁸. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi VM-475-son qarori qabul qilinib, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi⁹. Mazkur institutning asosiy vazifasi sifatida SI sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, kadrlar tayyorlash va innovatsion loyihalarni amalga oshirish belgilandi.

Bundan tashqari, 2021-yil 26-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5234-son qarori qabul qilindi¹⁰. Bu orqali SI texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus huquqiy rejim joriy qilindi. Unga muvofiq, eksperiment sifatida ayrim sohalarda sinov loyihalar yo'lga qo'yildi. Shu qaror asosida, 2021-yil 29-noyabrda Vazirlar Mahkamasining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida"gi VM-717-son qarori bilan nizom tasdiqlandi¹¹.

Eng muhim bosqichlardan biri sifatida, 2024-yil 14-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PQ-358-son qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi¹².

Davlat rahbarining Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasida ilgari surgan tashabbusini amalga oshirish uchun 2025-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida SI bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi muhim va konseptual qonun loyihasi muhokama qilindi va birinchi o'qishda qabul qilindi¹³. Loyihada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari inson, uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlarini buzmasligiga oid talabni kiritish ko'zda tutilyotgani ma'lum qilindi.

Ushbu qonun loyihasi nafaqat SI bo'yicha ichki huquqiy makonni mustahkamlashga, balki O'zbekistonda SI etikasi yuzasidan kelib chiqadigan nizolarga yechim topishda boshqa davlatlar bilan standartlashgan Normativ-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

XULOSA

Xalqaro xususiy huquqda sun'iy intellekt ishtirokida yuzaga keladigan nizolarni huquqiy tartibga solish bugungi kunda nafaqat yuridik mexanizmlarni takomillashtirishni, balki xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan etik me'yorlarga asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi VM-475-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5234-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida"gi VM-717-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" PQ-358-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

¹³ Aholi huquq va erkinliklari kafolatlari yanada kuchaytiriladi // URL: <https://parliament.gov.uz/news/aholi-huquq-va-erkinliklari-kafolatlari-yanada-kuchaytiriladi>

Ayniqsa, SI tomonidan avtonom qabul qilingan qarorlar, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashdagi xavflar, shartnomalarning bajarilmasligi yoki javobgarlik subyekting aniqlanmasligi kabi masalalar transchegaraviy nizolarda tez-tez uchrab turibdi. Bunday murakkab huquqiy vaziyatlarda, sun'iy intellektidan foydalanish etikasi bo'yicha xalqaro miqyosda qabul qilinadigan model qonunning mavjudligi nizolarni barqaror va adolatli yechishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbus - SI etikasi bo'yicha model qonun ishlab chiqish taklifi - dolzarb global ehtiyojlarga javob beruvchi, kelajkdagi xalqaro-huquqiy standartlar asosini belgilovchi strategik qadam sifatida e'tirof etilmoqda. Bu bilan birga, milliy qonunchilikda olib borilayotgan islohotlar ham ushbu tashabbusni amaliy jihatdan mustahkamlab, O'zbekistonni SI huquqiy tartiboti borasida mintaqaviy yetakchiga aylantirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi: <https://president.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni: <https://www.lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori: <https://www.lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi VM-475-son qarori: <https://www.lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustidagi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5234-son qarori: <https://www.lex.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida"gi VM-717-son qarori: <https://www.lex.uz/>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrdagi Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" PQ-358-son qarori: <https://www.lex.uz/>
8. Aholi huquq va erkinliklari kafolatlari yanada kuchaytirilad: <https://parliament.gov.uz/>
9. The French SA fines Clearview AI EUR 20 million: <https://www.edpb.europa.eu/>
10. Five key takeaways from Canadian court's dismissal of Expedia class action dismissal: <https://globalcompetitionreview.com/>
11. Insurance Unicorn Lemonade Backtracks Comments About Its AI After Accusations Of Discrimination: <https://www.forbes.com/>
12. Getty Images and others -v- Stability AI: <https://www.judiciary.uk/>
13. Singapore court's cryptocurrency decision: Implications for cryptocurrency trading, smart contracts and AI: <https://www.nortonrosefulbright.com>